## Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

### “Huquq fanlari” yo‘nalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|---|---|
| **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida mustahkamlangan akademik erkinlik institutining konstitutsiyaviy-huquqiy mazmuni va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish**<br><br> | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>- Akademik erkinlikning **milliy konstitutsiyaviy modeli** (milliy - qiyosiy tahlil asosida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan konsepsiya) ishlab chiqiladi;<br>- **“Akademik erkinlik to‘g‘risida”** alohida normativ-huquqiy hujjat yoki amaldagi qonunchilikka o‘zgartirishlar paketi loyihasi tayyorlanadi;<br>- oliy ta’lim muassasalari uchun “**Akademik erkinlikni ta’minlash reglamenti”** namunaviy hujjat loyihasi tayyorlanadi;<br>- “Academic Freedom Index – Uzbekistan” (AFI-UZ) – **milliy indeksi** ishlab chiqiladi;<br>- oliy ta’lim muassasalari uchun **majburiy va tavsiyaviy standartlar** tizimi (minimum kafolatlar modeli) ishlab chiqiladi;<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish.** Olingan natijalar **Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Adliya vazirligi** tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida **Adliya vazirligi** yoki **Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**ning xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Adliya vazirligi** yoki **Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |